MUQIMIY HAYOT YO‘LI VA IJODINING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI

Toxirova Nigina Qahramon qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Tel: +998 94 920 91 16
E-mail: toxirovanigina16@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muqimiyning hayot yo‘li, ijod qilgan davri muhiti hamda uning adabiy merosi tahlil qilinadi. Shoirning bolalik yillari, ta’lim olishi, ijodiy shakllanish bosqichlari va o‘zbek adabiyotidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, uning asarlarining bugungi kundagi ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: Muqimiy, Qo‘qon, lirika, g‘azal, sayohatnoma, muxammas, murabba’, masnaviy, hassos, xattot, XIX-asr o‘zbek adabiyoti, ma’naviy meros.
Аннотация. В данной статье анализируются жизненный путь Мукими, творческая среда его эпохи, а также литературное наследие поэта. Освещаются детские годы поэта, получение образования, этапы творческого становления и его место в узбекской литературе. Также раскрывается духовно-просветительское значение его произведений в современный период.
Ключевые слова: Мукими, Коканд, лирика, газель, саёхатнома, мухаммас, мурабба, маснави, хассос, каллиграф, узбекская литература XIX-века, духовное наследие.
Abstract. This article analyzes the life and creative activity of Muqimiy, the literary environment of his period, and his literary heritage. The poet’s childhood, education, stages of creative development, and his role in Uzbek literature are discussed. In addition, the spiritual and educational significance of his works in the modern era is highlighted.
Keywords: Muqimiy, Kokand, lyric poetry, ghazal, travelogue, mukhammas, murabba, masnavi, calligrapher, XIX-century Uzbek literature, spiritual heritage.

KIRISH

XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asr boshlarida ravnaq topgan milliy uyg‘onish adabiyotining zabardast namoyondalaridan biri Muhammad Aminxo‘ja Muqimiydir. Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li Muqimiy 1850-yilda Qo‘qon shahrining Bekvachcha mahallasida, 1836-yilda Qo‘qonga ko‘chib kelib o‘rnashgan toshkentlik novvoy Mirzaxo‘ja Mirfozil oilasida tug‘ilgan. Uning onasi Oyshabibi xo‘jandlik bo‘lib, oilada Muqimiydan tashqari Tojinisa, Ulug‘bibi, Saydinisa va Mehrinisa ismli to‘rt nafar qiz farzand ham voyaga yetgan. [1]

Muqimiy dastlab o‘z mahallasidagi mulla Abduxalil maktabida tahsil olgan. Shoirning ilm olishga va adabiyotga erta qiziqishida onasi Oyshabibi aytib bergan ertak hamda qo‘shiqlarning ta’siri katta bo‘lgan. Muqimiyning savodi chiqqach, otasi moddiy qiyinchiliklarga qaramasdan, yagona o‘g‘lining chuqur bilim olishini istaydi. Shu sababli Muqimiy 1864-yilda Qo‘qondagi “Hokim oyim” madrasasiga o‘qishga kiradi.

1867-yilda onasi vafot etadi va otasi Ziyodabibi ismli ayolga uylanadi. 1873-yilda madrasani tamomlagan Muhammad Aminxo‘ja ilm olishni davom ettirish maqsadida Buxoroga yo‘l oladi. U 1873–1876-yillarda Buxorodagi “Mehtar anbar” madrasasida tahsil oladi. Shu davrda Ziyodabibining avvalgi turmushidan bo‘lgan Sanambibi ismli qizga uylanadi.

Shoir dastlab yer qurilishi mahkamasida mirzalik, keyinchalik esa Sirdaryo bo‘yidagi Oqjar paromida pattachilik bilan shug‘ullanadi. Hayotdagi iqtisodiy qiyinchiliklar uning oilaviy turmushiga ham ta’sir ko‘rsatadi. 1879-yilda Sanambibi boshqa oila quradi va Muqimiy farzandi tarbiyasi bilan

yolg‘iz qoladi. Shundan so‘ng shoir o‘z hovlisini tark etib, mahallasidagi Hazrat madrasasidan hujra oladi.

1885–1886-yillarda otasi Mirzaxo‘janing vafoti oilaviy mas’uliyatni to‘liq shoir zimmasiga yuklaydi. Bu holat uning hayotida murakkab davrni yuzaga keltiradi. Shu sababli Muqimiy 1877–1878-yillarda Qo‘qondan Toshkentga yo‘l oladi. 1892-yilda esa u ikkinchi marta Toshkentga tashrif buyuradi. Shoir Toshkent safari davomida ota yurti bilan bog‘liq qarindoshlari va yaqinlarini topadi hamda ko‘plab ijodkor do‘stlar orttiradi.

Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy XIX-asrning 70-yillari oxiridan boshlab to‘liq badiiy ijod bilan shug‘ullana boshlaydi. U “Muqimiy” taxallusi bilan she’rlar yozib, keng shuhrat qozonadi. Zamonasining yetuk xattotlaridan biri Muhammad Yusuf xattotdan ta’lim olib, mohir kotib darajasiga yetishadi. Xattotlik uning asosiy kasbi va tirikchilik manbalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Bu davrga kelib Muqimiy o‘zining jo‘shqin lirikasi hamda jamiyat hayotidagi ayrim illatlarni badiiy mahorat bilan yorituvchi hajviy asarlari orqali mashhur bo‘ladi. Muqimiy Qo‘qonda Furqat, G‘aribiy, Nasimiy, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir va Mavlaviy kabi ko‘plab ijodkorlardan iborat adabiy muhitga yetakchilik qiladi.

Uzoq yillar davom etgan mashaqqatli hayot va tinimsiz ijodiy faoliyat uning sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shoir umrining so‘nggi yillarida xastalanib, 1903-yilda vafot etadi. [1, 2]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muqimiy hayoti va ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida keng o‘rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, XIX-asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida uning tutgan o‘rni, lirik merosi hamda sayohatnoma janrini rivojlantirishdagi xizmatlari ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Muqimiy ijodini o‘rganishda umumta’lim maktablari uchun yaratilgan adabiyot darsliklari muhim manba vazifasini bajaradi. Jumladan, 5-sinf “Adabiyot” darsligida shoirning hayoti, ijodiy faoliyati va badiiy merosi haqida dastlabki ilmiy-ma’rifiy ma’lumotlar berilgan bo‘lib, unda Muqimiyning xalqparvar shoir sifatidagi faoliyati yoritilgan.

Shuningdek, D. Yusupovaning “Adabiyotdan qo‘llanma” asarida Muqimiy ijodining badiiy xususiyatlari, lirik asarlarining g‘oyaviy mazmuni hamda o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rni haqida muhim fikrlar ilgari surilgan. Mazkur qo‘llanmada shoir asarlarida insoniy tuyg‘ular, sadoqat, muhabbat va ma’rifatparvarlik g‘oyalari yetakchi o‘rin egallashi ta’kidlanadi.

Muqimiy ijodining ayrim yo‘nalishlari alohida tadqiqot obyektiga ham aylangan. Xususan, J. Isakovning “Muqimiy hayoti va ijodini o‘rganishda sayohat darslarini tashkil etish” mavzusidagi kurs ishida shoirning “Sayohatnoma” asarlari, ularning janriy xususiyatlari hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda Muqimiy sayohatnomalarining xalqchil ruhda yozilgani, sodda va ravon uslubga egaligi hamda o‘quvchilarni ma’naviy-estetik jihatdan tarbiyalashdagi o‘rni ochib berilgan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Muqimiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotining muhim qismi sifatida baholanadi. Biroq shoir merosining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini zamonaviy nuqtayi nazardan o‘rganish, ayniqsa yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini chuqurroq tahlil qilish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiy-qiyosiy, badiiy-tahliliy hamda manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini Muqimiy hayoti va ijodiga oid ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda adabiyotshunos olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida Muqimiyning lirik asarlari va “Sayohatnoma”lari badiiy-estetik jihatdan tahlil qilindi. Shoir asarlaridagi sevgi, sadoqat, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik hamda xalqchillik g‘oyalari adabiy tahlil asosida o‘rganildi. Shuningdek, she’riy parchalar mazmuni poetik jihatdan sharhlanib, ularning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati ochib berildi.

Tarixiy-qiyosiy metod yordamida Muqimiy yashagan davr muhiti, adabiy jarayon va shoirning zamondoshlari bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, sayohatnoma janrining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni boshqa ijodkorlar faoliyati bilan qiyosiy tarzda baholandi.

Tadqiqot jarayonida umumlashtirish, tizimlashtirish va ilmiy xulosa chiqarish usullaridan ham foydalanildi. Mazkur metodlar orqali Muqimiy ijodining bugungi kundagi ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati hamda yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muhammad Aminxo‘ja lirikaning g‘azal, muxammas, murabba’, tuyuq, fard va ruboiy kabi janrlarida samarali ijod qilgan. Muqimiy o‘z asarlarida chin muhabbat va insoniy tuyg‘ularni kuylagan. Uning she’rlarining tub mohiyatini inson kechinmalari, g‘am-anduhlari, orzu-intilishlari tashkil etadi. Shoir asarlarida sevgi, sadoqat, do‘stlik, samimiyat hamda sabr-matonat ulug‘lanib, ular orqali insoniy fazilatlarni tarbiyalash g‘oyasi ilgari suriladi. Quyidagi parchada buning yorqin namunasi aks etgan:

Emdi sendek, jono, jonon qaydadur,
Ko‘rib gul yuzingni bog‘da bandadur.
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Mazkur misralar ishqiy lirikaning go‘zal namunalaridan biri bo‘lib, unda oshiqning sadoqati va mahbubasiga bo‘lgan cheksiz muhabbati tasvirlangan. Shoir dastlabki misralar orqali mahbubaning betakrorligini, dunyoni kezib ham unga teng keladigan go‘zalni topish mushkulligini ifodalaydi. Keyingi misrada esa mahbubaning husni oldida hatto bog‘dagi gullar ham xijolatda qolishi ta’kidlanadi. Uchinchi misrada oshiq muhabbatining umrining oxirigacha davom etishi bayon etilib, sadoqat mavzusi markaziy o‘ringa chiqadi. So‘nggi misra esa she’rning eng ta’sirchan qismi hisoblanib, oshiq uchun jismoniy masofa muhim emasligi, uning qalbi va xayoli doimo sevgan insoni bilan ekanligi ifodalanadi. Bu esa ma’naviy yaqinlikning yuksak ko‘rinishini namoyon etadi. [3]

O‘z davri adabiyotida sayohatnoma janrining shakllanishi va rivojlanishida Muqimiyning o‘rni beqiyosdir. Uning sayohatnomalari ko‘pincha zamondan shikoyat ohanglari bilan boshlanib, shoirning safarga chiqish sabablarini yoritadi. Ushbu bayonlarda turmush tashvishlaridan charchagan qalb kechinmalari aks etadi. Shoir o‘zi ko‘rgan voqea-hodisalarni sodda va ravon uslubda tasvirlagani bois uning misralari jonli va ta’sirchan chiqqan.

Muqimiyning “Sayohatnoma” asarlarida Qo‘qondan Shohimardonga, Qo‘qondan Farg‘onaga hamda Qo‘qondan Isfaraga qilgan safarlari taassurotlari aks etgan. Shoir yo‘lda uchragan insonlar, ularning turmush tarzi va muomala madaniyati haqida batafsil yozadi. Tasvirlar orqali jamiyatdagi ayrim kamchilik va illatlar ham badiiy mahorat bilan yoritiladi. Xususan, ayrim joylardagi jaholat, boylarning o‘zini boshqalardan ustun qo‘yishi hamda adolatsizlik holatlari kinoyaviy ruhda tasvirlanadi. Shu bilan birga, Muqimiy Farg‘onaning go‘zal tabiati va zilol suvlarini katta zavq bilan madh etadi:

Vodil maqomi dilfizo,
Ko‘chalaridur dilkusho,
Anhorida obi safo,
Sebarga obishor ekan.

“Sayohatnoma”larning xalq orasida keng ommalashishiga ularning kichik to‘rtlik shaklida, sodda va ravon qofiya tizimida yozilgani ham sabab bo‘lgan. Bunday uslub o‘quvchining asarni qiziqish bilan mutolaa qilishiga va oson yodlab olishiga imkon yaratadi. Aynan shu jihatlari sababli Muqimiy o‘zbek adabiyotida mukammal shakllangan sayohatnoma janrining asoschilaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Muqimiyning “Sayohatnoma”lari xalq orasida mashhur bo‘lgach, Furqat, Zavqiy, Tajalliy kabi ijodkorlar ham shu uslubda asarlar yaratganlar. [1]

Muqimiy “Sayohatnoma”larining yana bir muhim jihati shundaki, ularda real hayot manzaralari badiiy tasvir bilan uyg‘unlashgan. Shoir safar davomida uchragan voqea-hodisalarni oddiy kuzatuvchi

sifatida emas, balki chuqur mushohada yurituvchi ijodkor sifatida tasvirlaydi. Shu sababli uning sayohatnomalari nafaqat adabiy, balki tarixiy-ma’rifiy manba sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muqimiy o‘z davrining haqiqatparvar va xalqparvar shoirlaridan biri hisoblanadi. U oddiy xalq orasida yashab, ularning dard-u tashvishlarini chuqur his etgan hamda o‘z asarlarida badiiy mahorat bilan aks ettirgan. Muqimiy ijodida kulgi va satira vositasida jamiyatdagi ayrim kamchiliklar, jaholat va adolatsizlik holatlari yoritilgan.

Shoir ijodi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki u ilgari surgan insoniylik, adolat va ma’rifatga intilish kabi g‘oyalar har qanday davr uchun dolzarb hisoblanadi. Shu sababli hozirgi kunda Muqimiy merosiga katta e’tibor qaratilib, uning asarlari maktab va oliy ta’lim dasturlariga kiritilgan. Shuningdek, asarlari qayta nashr etilib, ular yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda hamda Muqimiy nomidagi teatrlar faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, Toshkent shahrida joylashgan Toshkent metropolitenining “Muqimiy” bekati ham shoir nomini abadiylashtirgan muhim maskanlardan biri sanaladi. Har kuni minglab insonlar ushbu bekatdan foydalanish jarayonida shoir nomi va uning ma’naviy merosi bilan yuzma-yuz keladilar.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy merosiga bo‘lgan e’tibor haykallar, teatrlar, ilmiy konferensiyalar va adabiy kechalar orqali tobora ortib bormoqda. Bu esa shoirning nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki bugungi ma’naviy-ma’rifiy hayotimizning muhim qismi sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari asosida Muqimiy ijodini umumta’lim maktablari hamda oliy ta’lim muassasalarida interaktiv metodlar asosida o‘qitish amaliyotini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, shoirning “Sayohatnoma” asarlaridan yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini rivojlantirishda qo‘shimcha o‘quv materiali sifatida samarali foydalanish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, Muqimiy ijodiga oid ilmiy tadqiqotlarni zamonaviy pedagogik hamda adabiy yondashuvlar asosida davom ettirish, uning badiiy merosini chuqurroq o‘rganish va keng targ‘ib qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 5-sinf “Adabiyot” darsligi. – Toshkent: “Sharq”, 2015.
2. Yusupova D. Adabiyotdan qo‘llanma. – Toshkent: “Akademnashr”, 2015.
3. Isakov J. Muqimiy hayoti va ijodini o‘rganishda sayohat darslarini tashkil etish (kurs ishi). // Docx.uz. – Toshkent, 2024.
4. Karimov N. XIX-asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2007.
5. Qayumov A. Muqimiy va Furqat ijodi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
6. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1976.
7. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: “Adabiyot”, 2013.